



UDK:811,93:81`367

Sanobar KULDASHEVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: kuldasheva1777@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti professori, f.f.d. B.To‘xliyev taqrizi asosida

“SODDA VA QO‘SHMA GAPLAR” MAVZUSINI MUSTAHKAMLASHDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ona tili darslarining mavzuni mustahkamlash bosqichlarida, yangi mavzu o‘tilgandan keyingi darslarda multimedia majmualaridan foydalanish, videolavhalar ustida topshiriqlar ishlash metodikasi haqida so‘z boradi. Olimlarning ona tilini o‘qitishda multimedia vositalarining afzalliklari haqida aytgan fikrlari tahlilga tortilgan. “Sodda va qo‘shma gaplar” mavzusida videolavhalar vositasida yaratilgan dars ishlanmasi, turli topshiriqlar metodik tahlil qilingan va tavsiya etilgan. Mavzu doirasida o‘quvchining malaka talablari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia vositalari, videolavha, malaka talablari, audiovizual vositalar, og‘zaki nutq, lingvistik kompetensiya, anglash.

THE ROLE OF MULTIMEDIA IN STRENGTHENING THE TOPIC OF “SIMPLE AND COMBINED SENTENCES”

Abstract

This article talks about the use of multimedia complexes in the stages of strengthening the topic of the mother tongue lessons, in the lessons after the new topic has been taught, and the methodology of working on assignments on videos. The opinions of scientists about the advantages of multimedia tools in teaching the mother tongue are analyzed. On the subject of “Simple and Compound Sentences”, lesson plans created with the help of videos, various tasks were methodically analyzed and recommended. Within the subject, the student's qualification requirements have been developed.

Key words: multimedia tools, video, skill requirements, audio-visual tools, speaking, linguistic competence, comprehension.

РОЛЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ СРЕДСТВ В УКРЕПЛЕНИИ ТЕМЫ “ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ”

Аннотация

В данной статье рассказывается об использовании мультимедийных комплексов на этапах закрепления темы уроков родного языка, на уроках после изучения новой темы, методике работы над заданиями по видео. Анализируются мнения ученых о преимуществах мультимедийных средств в обучении родному языку. По теме “Простые и сложные предложения” были методично проанализированы и рекомендованы планы уроков, различные задания, созданные с помощью видеороликов. В рамках предмета разработаны квалификационные требования к студенту.

Ключевые слова: мультимедийные средства, видеоролик, требования к навыкам, аудиовизуальные средства, говорение, языковая компетенция, понимание.

Kirish. Bilamizki, o‘quv jarayonida tatbiq etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat ushbu sohadagi bilim va ko‘nikmalarning shakllanishiga, balki o‘quvchi dunyoqarashining kengayishiga, shaxsiy fazilatlarining takomillashuviga ta‘sir ko‘rsatadi, bilim olish jarayonining o‘ziga nisbatan qiziqishini oshirishga, o‘rganishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko‘plab olimlarning fikriga ko‘ra, multimedia vositalari o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Matn, nutq, grafika, animatsiya, musiqa, video va turli xil usullarning kombinatsiyasidan dars mashg‘ulotlarida unumli va o‘rinli foydalanib darsning mazmuni va shaklini ta‘minlash o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi: ma‘lumotlardan tezkor foydalanish, audio va vizual materiallardan istalgan makon va zamonda foydalana olish mumkinligi, ko‘rib idrok qilishni, mustaqil, ongli ravishda xulosa chiqarishni osonlashtiradi. “Ta‘lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta‘limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz”[1]. Boy berilgan

imkoniyatlarni joyiga keltirishning yagona yo‘li ta‘lim jarayonlarini tezkorlik bilan jahondagi ilg‘or tajribalar darajasiga yetkazib borish bilan hal etiladi. Buning eng qulay va ishonchli yo‘llaridan biri esa ta‘lim jarayoniga multimedia texnologiyalarini kengroq tatbiq qilish bilan ham belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Multimedaning paydo bo‘lishi va uning shakllanish jarayoni uning asosiy texnik ta‘minoti bo‘lgan kompyuterning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ye.S.Polatning fikricha, “Multimedia vositalari asosidagi darslar o‘quvchining ongosti reaksiyalariga materialni idrok etish va eslab qolishga yordam beradigan psixologik daqiqalarni yaratadi”[2]. E.G‘oziyev “har qanday faoliyat muayyan motivlar ta‘sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta‘lim jarayonida o‘zlashtirish, egallash va o‘rganishni amalga oshirishni ta‘minlash uchun o‘quvchilarda o‘quv motivlari mavjud bo‘lishi shart”ligini ta‘kidlaydi[3]. Bilish motivlari shaxsda bilish, bilim va ko‘nikmalarni egallash maqsadini qaror toptiradi, ya‘ni shaxsni gnoseologik maqsad sari yo‘naltiradi. Multimedia vositalari orqali tashkil etilgan dars mashg‘ulotlarida bilishning ham tashqi, ham ichki omillari yordamida o‘quvchi shaxsida o‘quv motivlarini

shakllantirishga erishiladi. Masalan, o'quvchilarni kichik guruhlarda birlashtirib jamoa tashkil etish, animatsiyalar vositasida bilimni baholash, aniq va to'g'ri to'xtamga kelmaguncha boshqa sahifaga o'tkazmaslik, sinf xonasiga zamonaviy kommunikatsiya muhitini olib kirish, o'quvchini yangi g'oyalari sari yetaklash, ijodkorlik, kreativ fikrlashga undash kabilar bevosita multimedia vositalari yordamida o'quv maqsadga nisbatan tashqi omilni vujudga keltiradi. Animatsiyalar harakatlanishi, ranglarning uyg'unligi va o'zgarib har tusga kirishi, ovoznining matn va harakatlarga mutanosibligi orqali o'quvchi shaxsining tuyg'ulariga (sezish, his qilish, rohatlanishi, kayfiyatining ko'tarilishi) ta'sir o'tkazish mumkinki, bular o'qishga nisbatan individual maqsadni yuzaga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida hosil bo'ladigan ichki omillar hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida vujudga keltirish oson kechadigan bunday omillar

bilishga nisbatan qiziqishni vujudga keltiradi. Bilishga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi esa shaxsning ma'naviy darajasini oshirish uchun intilishning yetilishidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz o'z tajribalarimizda "Sodda va qo'shma gaplar" mavzusini mustahkamlashda tayyorlangan multimedia majmuamizdagi videolavha asosida topshiriqlar yaratdik va sinovdan o'tkazdik. Avvalambor, 9-sinfda tahsil olayotgan o'quvchi sodda va qo'shma gaplar doirasida nimalarni bilishi kerak? Sodda va qo'shma gaplar mavzusini tushuntirganda nutqiy va lingvistik kompetensiyani rivojlantirish uchun qanday malaka talablari ustida ishlash kerak? Dastlab belgilangan o'quv dasturi asosida 9-sinfda tahsil olayotgan o'quvchi uchun taklif etayotgan texnologiyamiz orqali erishilishi nazarda tutilayotgan quyidagi nutqiy hamda lingvistik kompetensiya malaka talablarini bir mavzu doirasida belgilab chiqdik.

Nutqiy kompetensiya (og'zaki nutq, yozma nutq, anglash (o'qish va tushunish, tinglab tushunish))

Malaka talab kodi	Og'zaki nutq
ON.1	O'zbek tilining qonun-qoidalariga amal qilgan holda rasmiy va norasmiy vaziyatlarda ta'sirchan va ravon so'zlay olish;
ON.2	Mavzudan chetlashmagan holda fikr va g'oyalarni taqdimot ko'rinishida tayyorlay olish;
ON.3	Ma'lum mavzu yuzasidan nutq namunasini tayyorlay olish va so'zlash;
ON.4	Grafikli chizma va diagrammalarni og'zaki ifodalay olish;
ON.5	Nazm va nasrda ifoda etilgan asar (yoki uning parchasi)ni ijro etishda nutqning verbal yoki neverbal imkoniyatlaridan foydalana olish;
OH.6	Berilgan matn, rasm, audio va videomaterial asosida o'z fikrlarini ifodalash;
OH.7	Nutq so'zlaganda argument va iqtiboslardan o'rinli foydalana olish, notiqlik san'ati me'yorlariga amal qilish.

	Tinglab tushunish
ATT.1	Turli shakldagi nutq va bahsni eshitib tushuna olish; eshitilgan monologik nutq va subbat haqidagi savollarga javob bera olish, unga munosabat bildirish;
ATT.2	Turli uslubdagi audio yoki videomaterialda berilgan ma'lumotni yozma, grafik va rasm ko'rinishida ifodalay olish;
ATT.3	Gap ohangidagi uslubiy vositalar (kinoya, piching, kesatiq, istehzo, mubolag'a, lof, yumor)ni tushunish;
ATT.4	Eshitilganlar asosida xulosa qilish va xulosani dalillar bilan asoslay olish;
ATT.5	Tinglangan nutqning ruh(pafos)ini anglash va unga munosabat bildira olish.

Lingvistik kompetensiya

Malaka talab kodi	Yozma savodxonlik
9.LK.IM.1	Imlo qoidalarini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish

Malaka talab kodi	Sintaksis
9.LK.S.1	Qo'shma gap qismlari va ularni bog'lovchi vositalarni, uning qismlari orasida tinish belgilarining qo'llanishini farqlay olish;
9.LK.S.2	Bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplarni farqlash, nutqda to'g'ri qo'llay olish;
9.LK.S.3	Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar haqida bilish, ularning tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish;
9.LK.S.4	Nutq uslublarini o'ziga xos jihatlarini bilish va farqlay olish, ulardan nutq amaliyotida foydalana olish

Internet sahifalaridan mavzuga mos keladigan videomaterial tanlab oldik. U ham bolaning nutqi ustida ishlash, ham nazariy ma'lumot berish samaradorligini ko'rsatishga xizmat qilishi lozim.

Videolavha "Garajda yaratilgan startap: innovatsiya laboratoriyasi" deb nomlanadi (kun.uz).

1-topshiriq. Videoni ko'rish jarayonida tayanch so'z va iboralarni daftarlaringizga qayd etib boring. (O'quvchilar o'zlarini uchun mavhum bo'lgan yoki tayanch deb hisoblagan so'zlarini daftarlariga yozib boradilar).

2-topshiriq. Videolavhani diqqat bilan kuzating. Uning asosiy mazmunini qayta so'zlab bering.

Asosiy maqsad adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda ketma-ketlik asosida izchil, mazmunli, ifodali, ravon, ta'sirchan so'zlab berishga undashdan iborat. O'quvchi o'zini erkin tutishi, nutq so'zlayotganda gavda, qo'l harakatlariga e'tiborli bo'lishi, o'rtoqlarining diqqatini o'ziga qarata olishi, qisqa qilib aytganda, shu asosda ularga notiqlik san'ati ham o'rgatib boriladi. Matnda keltirilgan argumentlar

o'quvchi tomonidan boyitilishi mumkin, ya'ni fikrlarni to'ldirishga va qo'shimchalar kiritishga imkon beriladi. "Bola nutqi, agarda u atrofdagilarga tushunarli bo'lsagina ishonchli muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu esa fikrni so'zlashda izchil, ravon va to'liq ifodalashga, aniq so'zlarni tanlashga, talaffuzning sofligi va to'g'riligiga bog'liq. Qulay shart-sharoitlarda u yoki bu darajada ushbu xususiyatlar bolada aniq reja asosida o'qitish, turli metodik usullarni qo'llash yo'li bilan hosil qilinadi"[4].

O'qituvchi har bir o'quvchining nutqini diqqat bilan kuzatib boradi, undagi kamchiliklarga e'tibor qaratiladi. Imkon darajasida o'quvchi nutqidagi xato va kamchiliklar, o'z nutqi orqali atrofdagilarini boshqara olishi, omma oldida o'zini tutishi va boshqalar o'z tengdoshlari (sinfdoxlari, guruhdoxlari) ishtirokida muhokama qilinadi. "Ma'lumki, eshitish mashqlari tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi, va ayni paytda, talabalarda tinglab tushunganlarini so'zlab berish ko'nikmalarini takomillashtirishga ham zamin tayyorlaydi"[5]. Talabalar

uchun mo'ljallangan mazkur kuzatishlardan, nazarimizda, umumiy o'rta ta'limi tizimida ham foydalanish nojoiz ko'rinmaydi. Ko'rganlari va eshitganlarini anglash, u asosida fikr yuritish va xulosa chiqarish malakalari ham shakllanadi. "Bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi hissiyotlar bilan bog'lanib, olinayotgan bilimlarni nutqiy muloqot ehtiyoji bilan muvofiqlashtiradi, nutqning sintaktik jihatdan boyligi o'quvchida o'z nutqining ta'sir kuchiga ishonch paydo qiladi. Barcha o'qitish metodlari va vositalari o'quvchilarga chuqur va puxta bilim berish, o'quvchi nutqini o'stirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi mazkur o'qitish metodlariga ijodiy yondashishi, mavzuga, ta'lim maqsadi va vazifalariga mosini tanlashi, uni samarali holda qo'llashi, ya'ni ularga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishi zarur"[6]. Bevosita topshiriqlar tizimiga o'tishdan oldin ayrim terminologik har xilliklar haqida to'xtab o'tish joiz ko'rinadi. Odatda, matn yoki nutqning tipi haqida gap ketganida ularning uchta turi ajratiladi. Bular rus tilida "povestvovaniye", "opisaniye", "rassujdeniye" shaklida uchraydi. O'zbek tilida ular odatda hikoyalash, tavsif hamda mulohaza tarzida ifodalangani. Amalda ularni turlicha qo'llash ham kuzatiladi[5]. Biz 2-topshirig'imizda nutqning qayta hikoyalash turidan foydalandik.

3-topshiriq. Qo'shma gaplarni aniqlang.

Videorolik matnining qog'ozda yozilgan varianti o'quvchilar qo'lga tarqatiladi. O'quvchilar matndagi gaplarni sodda va qo'shma gaplarga ajratib chiqishadi. Gaplardagi kesimlarni aniqlash hamda qo'shma gaplarni bog'lovchi

vositalarga e'tibor qaratiladi. 2-topshiriqni bajarishda nutqiy kompetensiya lingvistik kompetensiya tomonga yo'naltiriladi.

Videolavhaning matni: Dunyodagi eng yirik internet do'kon Amazon hisoblanadi, Disney esa multiplikatsion mahsulotlari bilan butun dunyo bolalari qalbini zabt etdi. Bir kunda millionlab odamlar foydalanadigan qidiruv tizimi – Google va nanotexnologiyani innovatsiyaga aylantirayotgan – Lotus engineering. Ularni nima bog'lab turishini bilasizmi? Ularning barchasi o'z faoliyatini oddiygina garajda boshlagan va yuksak muvaffaqiyatlarga erishgan. Amazon, Disney va Google dunyoga mashhur, ammo Lotus engineering ham hali o'z yo'li avvalida bo'lishiga qaramay, kўплаб foydali loyihalarni amalga oshirishga ulgurdi.

Lotus engineering – Yevropaning qay bir burchagida joylashmagan, balki o'zimizning Toshkentda joylashgan laboratoriyaning nomi. U shunchaki oddiy tajribalar o'tkaziladigan laboratoriya emas. U yerda nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun ham hali yangi bo'lgan yo'nalish – nanotexnologiya kuchidan foydalangan holda innovatsiyalar yaratiladi va jamiyatga tatbiq etiladi. Eng qizig'i, u qachonlardir mashina tuzatishga xizmat qiladigan oddiy garajda joylashgan.

Lotus engineering loyihasi rahbari Amir Obidov ilg'or materialshunoslik va injiniring doktori, professor. U Janubiy Koreyada magistratura va doktorantura bosqichlarida tahsil oldi, ilmiy ishini yoqlab O'zbekistonga qaytgan yosh olim faoliyatini yangicha yo'sinda davom ettirish haqida o'ylay boshladi...

Sodda gaplar	Qo'shma gaplar	Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalar

4-topshiriq. Matndagi sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantiring.

Ekraning bir tomonida matn, ikkinchi tomonida sodda gaplarni bog'lovchi vositalar chiqarib qo'yiladi. Vaqt ajratiladi, berilgan vaqt davomida matn tarkibidan xohlagan 3 ta sodda gapni topib qo'shma gapga aylantirishi lozimligi aytiladi.

O'quvchi sodda gaplarni qo'shma gapga aylantirganda mavzuga ijodiy yondashadi: sodda gapning davomini o'ylab topish unda tegishli "zo'riqish"ni yuzaga keltiradi, u izlashga, o'ylashga majbur bo'ladi. Buning natijasida esa munosib so'z va so'z birikmalari, aniq javob bo'la oladigan fikr davomini aks ettiruvchi jumla (yoki gap) paydo bo'ladi, demakki, ongli faoliyat, nutqiy rivojlanish, lug'at boyligining ortishi yuzaga keladi.

5-topshiriq. Mazkur topshiriqda Y2 (Matching) ko'rinishidagi topshiriqlardan foydalandik. O'quvchi ikkinchi ustunda berilgan gaplarning mazmuniga mos gaplarni to'rtinchi ustundan topib, uchinchi ustunda raqamini yozadi. Kompyuter xotirasiga to'g'ri javoblar kiritilgan bo'ladi, shuning uchun o'quvchi to'g'ri javobni topmaguncha kompyuter uning javobini qabul qilmaydi. Garchi topshiriqdagi to'g'ri va noto'g'ri javoblar kompyuter xotirasiga kiritilgan bo'lsa-da, go'yoki jarayonni animatsiya boshqaradi. To'g'ri javobni xursand bo'lib qabul qilishi, noto'g'ri javobdan xafa bo'lishi, o'quvchiga avtomatlashtirilgan holda "Barakalla", "Ofarin", "Qayta urinib ko'ring" kabi jumlar bilan reaksiya bildirishlari bolaning kayfiyatiga ijobiy ta'sir qiladi, ruhan qo'llaydi, bilmagan bilimlarini izlanib o'rganish motivlarini oshiradi. Shu bilan birga o'quvchini baholashda nechanchi urinishda topganligi va sarflangan vaqt inobatga olib boriladi.

Uyga vazifa ham shu videomaterial asosida berildi. Har bir guruh o'quvchilari o'zlari yozib olgan so'z va iboralarning ma'nosini internet qidiruv tizimlari va elektron lug'atlardan foydalanib mustaqil ravishda topib kelishadi.

1-guruh: Disney, startap, injiniring, magistratura...

2-guruh: Google, doktorantura, nanotexnologiya, Amazon...

3-guruh: nanokukun, innovatsiya, materialshunoslik, loyiha...

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Bu bilan o'quvchida internet manbalaridan unumli foydalanish, manba va materiallarni qidirish va izlab topish, mustaqil bilimlarini boyitish, o'z ustida ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Shunday qilib belgilangan dastur asosida ishlab chiqilgan nutqiy kompetensiya malaka talablarimizning 9.NK.ON.1, 9.NK.ON.3, 9.NK.ON.6, 9.NK.ON.7; 9.NK.ATT.1, 9.NK.ATT.2, 9.NK.ATT.3, 9.NK.ATT.5, 9.NK.ATT.6 qismlari, lingvistik kompetensiya malaka talablarining 9.LK.IM.1, 9.LK.S.1, 9.LK.S.2 qismlari bajariladi. Bolada nutqiy kompetensiya elementlari bilan birga axborot vositalari bilan ishlash, ma'lumotni anglash, saralash, unga munosabat bildirish, xulosalash va dalillash malakalari ham rivojlanib boradi.

Xulosa va takliflar. Ona tili darslarida videolavhalardan foydalanish o'quvchilarda nafaqat nutqiy, balki sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Videolavhalar orqali o'quvchilar lug'atini boyitish, ko'rilgan lavhalar asosida fikrlarini erkin va ijodiy bayon etishga sharoit yaratiladi. Dunyoqarashlarini kengaytirilishida yordam beradi. Videolavha tanlanganda o'quvchining yoshi, qiziqishlari, psixologiyasi inobatga olinishi bilan bir qatorda, uning tarbiyaviy ahamiyatiga ham e'tibor qaratilishi kerak. Va yana bir muhim jihati videoga ajratilgan vaqt masalasini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim. O'quvchilarning e'tibori chalg'ituvchi lavhalarga qaratilib, asosiy nazariy ma'lumotlar ikkilamchi bo'lib qolmasligi kerak. Mashg'ulot jarayonida audio-video materiallarga katta vaqt ajratish o'quvchilarni

asosiy faoliyat yo'nalishidan chalg'itishi, ularning muhim bo'lmagan qirralar bilan ko'proq band bo'lib qolishlariga sabab bo'lish xavfini yuzaga keltiradi. Eng yomoni, o'quvchilarning diqqati bo'linib, ularda zerikish yoki charchoqni hosil qilish ehtimoli ham yuzaga keladi.

Audiovizual materiallardan o'quvchi tushunishi qiyinroq kechadigan mavzular va bo'limlarda foydalanish samaralidir. Bunda vaqt masshtabini o'zgartirilishi, tezlashtirilgan, sekinlashtirilgan holatlarda taqdim etilishini ham inobatga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш. Биз кўп вақт йўқотганмиз. <https://uzreport.news/politics/biz-kop-vaqt-yoqotganmiz-shavkat-mirziyoyev>
2. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб.пособие для студ.пед.вузов и системы повыш.квалиф пед. кадров. – Москва, Издательский центр “Академия”, 2003. – С.158.
3. Ғозиев Э. Умумий психология. Психология мутахассислиги учун дарслик. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети “Университет” нашриёти, 2002. 167-бет.
4. Бабаева Д. Нутқ ўстириш назарияси ва методикаси. (Дарслик). – Т.: “Баркамол фэйз медиа”, 2018. – 432б.
5. Салишева З. Ўзбек тили машғулотида талабалар монологик нутқини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш (рус гуруҳларида): Дисс. PhD. – Тошкент:, 2019. – 179 б.
6. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ...дисс. – Тошкент, 2005. – 85-б.
7. Muxitdinova X. Til ta'limida videomateriallar qanday uyg'unlashadi? Til va adabiyot ta'limi. – 2015. 8-son. – 15-16-bet.
8. Mahmudov N.M., Nurmonov A., Sobirov A.Sh. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2019. – 129b.
9. Кашук С.М. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования (на примере обучения французскому языку) Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Москва, 2014. – С.223.
10. Мейер Р.Э. A Cognitive Theory of Multimedia Learning: Implications for Design Principle. Santa Barbara, 1998. P.23-25.